



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz davlat universiteti
ORCID: 0009-0001-9469-4896
azizajavdat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga oid qonunlar, qarorlar va prezident farmonlari haqida so'z yuritilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab tadbirkorlikka oid qonunchilik va huquqiy bazani rivojlantirish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznesga xizmat ko'rsatadigan bozor infratuzilmasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: qonun, qaror, Prezident farmoni, vazirlar mahkamasining qarorlari, me'yoriy-huquqiy baza.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Файзиева Азиза Азамат кизи
Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье рассказывается о законах, постановлениях и указах президента, связанных с развитием малого бизнеса и предпринимательства в Узбекистане. С первых лет независимости в Узбекистане большое внимание уделяется развитию законодательства и правовой базы предпринимательства, защите прав предпринимателей, организации их финансовой поддержки, подготовке и переподготовке кадров, развитию направляется рыночная инфраструктура, обслуживающая малый бизнес.

Ключевые слова: закон, постановление, указ президента, решения Кабинета Министров, правовая база.

REGULATORY AND LEGAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

Fayziyeva Aziza Azamat qizi
Termiz State University

Annotation. This article talks about laws, decisions and presidential decrees related to the development of small business and entrepreneurship in Uzbekistan. Since the first years of independence, Uzbekistan has paid great attention to the development of the legislation and legal framework for entrepreneurship, the protection of the rights of entrepreneurs, the organization of their financial support, the training and retraining of personnel, and the development of the market infrastructure serving small businesses.

Key words: law, decision, presidential decree, decisions of the Cabinet of Ministers, legal framework.

Kirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu borada kichik tadbirkorlik subyektlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 50 dan ortiq farmon va qarorlari, vazirlar mahkamasining qarorlari qabul qilindi.

O'tgan yillar davomida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator qonunlar, farmon va dasturlar qabul qilindi. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 09.03.2019 №PQ-4231 sonli qarori; "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi 25.10.2019 №PQ-4498 sonli qarori; "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini moliyalashtirishni takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 02.04.2024 №PQ-149 sonli qarori; "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi, ishlab chiqaruvchi va ularni eksport qiluvchi tadbirkorlar bilan o'tkazilgan muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 01.04.2024 №PQ-146 qarori; "Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi 07.03.2024 №PQ-115 sonli qarori; "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16.11.2023 №PQ-366 sonli qarori; "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 16.09.2023 №PQ-306 sonli qarori; "Surxondaryo viloyatida qulay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 23.08.2021 №PQ-5228 sonli qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 11.11.2023 №PF-193 Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 20.01.2024 №181 sonli qarori; "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025 yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 14.03.2024 №128 sonli qarori; "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida 22.01.2024 №37 sonli qarori; "Hududlarda «mahallabay» ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 09.08.2021№504 sonli qarori hamda boshqa bir qator qarorlar va farmonlar qabul qilingan.

Adabiyotlar sharhi.

Tadbirkorlik tushunchasi hozirgi kunda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu atamaga turli davr olimlari turlicha ta'rif berishgan. Garchi olimlarning ta'riflari turlicha bo'lsa-da, ular bir-birini inkor etmaydi, aksincha bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Smitning (1962) biznes va tadbirkorlikni shaxsiy foyda olish uchun tavakkalchilik tijorat g'oyasini amalga oshiruvchi mulkdor deb ta'riflaydi. Mulkdor ishlab chiqarishni tashkil qiladi, rejalashtiradi, uning natijalarini o'zlashtiradi.

Mashhur amerikalik iqtisodchi Y. Shumpeter (1883-1950) o'zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» kitobida, tadbirkorni novator (yangilik bunyod qiluvchi odam) deb ta'riflagan (Шумпетер, 1982).

Iqtisodchi olim Xayn (1989) esa tadbirkorlik tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyat bo'lmagan, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topish, xatti-harakatlarni ta'minlashdir.

Amerikalik olim Xizrich (1991), «Tadbirkorlik o'z qiymatiga ega bo'lgan qandaydir yangi narsani yaratish jarayoni, tadbirkor esa buning uchun barcha zarur vaqti va kunini sarflaydigan, barcha moliyaviy, psixologik va ijtimoiy xavf-xatarni o'ziga olib, evaziga mukofot sifatida pul va erishilgan yutug'idan qanoatlanuvchi shaxs», – deb ta'kidlaydi.

Avstraliyalik iqtisodchi olim Fridrix Fon Xayn (1989) tadbirkorlik tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyat bo'lmagan, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlarni izlab topishi, xatti-harakatlarni ta'minlashdir.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan O'lmasov (1995) tadbirkorlikni “kishilarning moddiy va pul mablag'larini amalda xo'jalik oborotiga tushirib, daromad topishga mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat” deb ta'riflagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy mushohada, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, prognozlash usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mazkur hujjat va dasturlar O'zbekiston hukumati tomonidan mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi sa'y-harakatlarning bir qismidir. Ular qulay sarmoyaviy muhitni yaratish, moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash va yangi biznes loyihalarini rivojlantirishga ko'maklashishga qaratilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 09.03.2019 №PQ-4231 sonli qarori doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, tadbirkorlikni boshlamoqchi bo'lgan va mavjud tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratildi; oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun alohida kredit liniyalari ochildi va bu bo'yicha dasturlar ishlab chiqildi; tadbirkorlikka qiziqqan aholi uchun treninglar va seminarlar tashkil qilish yo'lga qo'yildi; mahalliy va xalqaro ekspertlar jalb qilinib, tadbirkorlik bo'yicha maslahat xizmatlari ko'rsatish tartibi joriy qilindi. Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus sanoat zonalari va texnoparklar tashkil etildi, tadbirkorlar uchun zarur bo'lgan xomashyo va resurslarni yetkazib berish tizimi takomillashtirildi.

Aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash» kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 20.01.2024 №181 sonli qarori doirasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish bo'yicha ariza loyiha tashabbuskori tomonidan mustaqil ravishda yoki markazlarning ko'magi bilan Biznes portal orqali taqdim etiladi. Loyiha tashabbuskori o'z arizasida quyidagi moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalaridan birini yoki bir nechtasini ko'rsatishi mumkin:

Agar tadbirkorlik subyektlari 100 mln. so'm kredit olishni rejalashtirgan bo'lsa, bu miqdordagi kredit kichik biznes subyektlari uchun garovsiz tarzda taqdim qilinadi. Bundan tashqari, 150,0 mln. so'mgacha garov talabi pasaytirilgan kredit;

500,0 mln. so'mgacha kredit-1 mlrd. so'mgacha garov evaziga;

1,5 mlrd. so'mgacha foizsiz bo'lib to'lash sharti bilan qarzga asosiy vosita olib berish;

2,0 mlrd. so'mgacha grant mablag'lari taqdim etish. O'zini o'zi band qilgan shaxslarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun 100 mln. so'mgacha garovsiz kreditlarning 50 foiz qismi ularning bank kartasiga o'tkazib berilishi mumkin.

Vazirlar mahkamasining ushbu qarori doirasida amalga oshirilgan ishlardan tadbirkorlarga qulaylik tug'dirganlaridan yana biri bu ro'yxatga olish tizimini osonlashtirilgani desak mubolag'a bo'lmaydi. 2017-yilgacha bo'lgan davr mobaynida tadbirkorlik subyektlari o'z korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish uchun har bir vakolatli organga borib, juda ham ko'p vaqt va kuch sarflashgan. So'nggi yillarda qabul qilingan chora-tadbirlar natijasida esa 2017-yil 1-apreldan 2017-yil 1-apreldan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan O'zbekiston Respublikasi Davlat interaktiv xizmatlari yagona portaliga integratsiyalashgan Internet tarmog'idagi Tizim orqali kuchayu-kunduz o'tkazish va hisobga qo'yish tartibi joriy qilindi. Aytish lozimki, bu jihat ham tadbirkorlarga o'ziga xos yengilliklar yaratib berdi.

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun belgilangan muddatlar

T/r	Tadbirkorlik faoliyati shakllarining nomi	Davlat ro'yxatidan o'tkazishning belgilangan muddatlari
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish		
1.	Yakka tartibdagi tadbirkor, shu jumladan, dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlari	Real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
2.	Tadbirkorlik faoliyatining boshqa shakllari	Real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan qayta o'tkazish		
3.	Dehqon xo'jaligi, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyati subyektlari boshlig'i o'zgarganda	Real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda
4.	Ta'xis hujjatlariga ustav fondi miqdorining oshirilishi, ulushning boshqa shaxsga o'tishi bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda	16 ish soatidan oshmagan vaqtda
5.	Ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlariga (ta'xis hujjatlariga) kiritilayotgan boshqa o'zgartirishlar yoki qo'shimchalar kiritilganda	Real vaqt rejimida, lekin 30 daqiqadan oshmagan vaqtda

Manba: lex.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Xulosa va takliflar.

So'nggi yillarda "Aholi xonadonlarida sanoat usulida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda tomorqa va dehqon xo'jaliklarida yangi zaxiralarni ishga solishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 07.03.2024 №PQ-115 sonli Prezident qarori doirasida hududlarda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, ularning eksport qilish darajasini oshirish, kichik ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ekin ekishga yaroqli bo'lgan yerlardan foydalanish darajasini yanada oshirish va mahalliy yer egalari daromad darajasini oshirish maqsadida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Bular jumlasiga respublikamizning 54ta tumanida namunaviy o'quv-tajriba maydonlari tashkil etilib, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, meva-sabzavotlarni shok usulida muzlatishni yo'lga qo'yish, muzlatgichli omborxonalar, foydalanishga tayyor issiqxonalar, qadoqlash, qayta ishlash sexlarini aholiga o'n ikki oy muddatga bo'lib to'lash sharti bilan lizingga berish kabi yangi loyihalar amalga oshirildi. Ishlab chiqilgan bu dasturlar aholi farovonligini oshirish, yashash sharoitlarini yaxshilash, bandlik darajasini oshirish hamda hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Ushbu chora-tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bu me'yoriy-huquqiy baza natijasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi tezlashdi va aholining iqtisodiy faolligi oshdi.

Ushbu chora-tadbirlar doirasida amalga oshirilgan ishlar hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Bu me'yoriy-huquqiy baza natijasida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi tezlashdi va aholining iqtisodiy faolligi oshdi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Smit Adam. (1962) *Issledovaniya o prirode I prichine bogatstvo narodov.* -M. Sotsekgiz, - 332-334 S.

Хайн Ф. (1989) *Конкуренция как процедура открытия.* «Мировая экономика и международные отношения» журналы, 12, -36-38-6.

Хаун Ф. (1989) *konkurensiya kak protsedura otkritiya.* "Mirovaya ekonomika I mejdunarodnie otnosheniya" jurnali, 12-son.

O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. (1995) *Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.* -T.: Mehnat, -192-bet.

Хизрич Р., Питерс С. (1991) *Предпринимательство.* -М., 20-6.

Шумпетер Й. (1982) *Теория экономического развития.* -М., 29-6.